




**SURXONDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI  
2023- YIL YANVAR-MAY  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Tel.: 76-225-65-76

[www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz)


## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2780,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,5 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 13,0 % ga o'sishi kuzatildi.*

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini tashkil etdi.*




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	95,5	112,9	17,4
Neft, ming t.	35,8	32,1	-3,7



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	12,0	11,2	-0,8
Chaqiq tosh, ming t.	25,6	0,9	-24,7

### Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2516,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,5 % ini tashkil etdi.


2022- yil  
yanvar-may

89,0 %

2023- yil  
yanvar-may





90,5%






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2022- yilning yanvar-may oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,5% (18,8 %) va quyi texnologiyali – 65,4 % (69,4 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,8 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 165,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 48,2 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,3 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,0 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 170,2 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2023- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,8 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 86,3 % ga kamaygan), 2,6 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (29,2 % ga kamaygan), 1,1 ming tonna lint (99,5 % ga kamaygan), 21,3 ming tonna neft bitumi (80,7 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	7,9	6,6	-1,3
Paxta tiviti (lint), ming t.	1,1	1,0	-0,1
Neft bitumi, ming t.	26,4	21,3	-5,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	48,3	19,5	-28,8
Saryog', t.	0,8	0,2	-0,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,0	1,1	0,1

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 26,3 bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa, 165,5 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 13,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 69,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 29,3 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 284,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,6 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 383,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may- oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 14,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 44,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 120,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 105,5 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1156,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 77,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6 %, fizik hajm indeksi 108,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 183,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 93,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,3 % ni, fizik hajm indeksi 74,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 175,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 54,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 218,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 149,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 83,7 % ga kamayganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	101,1	102,3	-1,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	18,3	13,7	-4,6

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	2,0	3,9	1,9
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	10,9	12,4	1,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 27,6 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,9 mlrd. so'm shuningdek, 12,4 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 857,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 30,8 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil  
yanvar-may

52,3 %

2023- yil  
yanvar-may

43,3 %

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil  
yanvar-may

47,7 %

2023- yil  
yanvar-may

56,7 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo ulushi 0,8 % (2022- yil yanvar-may oylarida 0,6 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani 15,8 % ni, 15,5 % Denov tumaniga to'g'ri kelib Jarqo'rg'on 11,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (100,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Denov (150,8 %) , Angor (145,1 %) va Sherobod (136,3 %) tumanlarida qayd etildi.